



Enhancing the effectiveness of innovative approaches in managing education quality at higher education institutions

Dildora DILSHODOVA¹

International Nordik University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
15 May 2025
Accepted 25 May 2025
Available online
15 June 2025

Keywords:

higher education,
quality of education,
innovative approach,
education management,
digital technologies,
management effectiveness,
creative methods,
educational strategy.

ABSTRACT

This article explores the significance of innovative approaches in managing the quality of higher education institutions, emphasizing their effectiveness and potential for practical implementation. The research examines the integration of modern management technologies, information and communication tools, creative pedagogical methods, and international best practices into the national education system. The author provides both theoretical and practical justification for innovation-driven strategies aimed at improving quality indicators in higher education. Furthermore, the paper identifies current challenges encountered during the transformation of educational management and proposes targeted solutions and recommendations.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5/S-pp113-118>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini oshirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

oliy ta'lim,
ta'lim sifati,
innovatsion yondashuv,
ta'lim menejmenti,
raqamli texnologiyalar,
boshqaruv samaradorligi,
kreativ metodlar,
ta'lim strategiyasi.

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, ularning samaradorligini oshirishdagi roli va amaliyotga tatbiq etilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari, kreativ ta'lim metodlari hamda xalqaro tajribalarning milliy ta'lim tizimiga integratsiyasi o'rganildi. Muallif oliy ta'limda sifat ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan innovatsion

¹ Master degree student, International Nordik University. E-mail: dildoradilshodova77@gmail.com

strategiyalarni nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Shuningdek, ta'lim menejmentining transformatsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Повышение эффективности инновационных подходов в управлении качеством образования в высших учебных заведениях

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

высшее образование, качество образования, инновационный подход, управление образованием, цифровые технологии, эффективность управления, креативные методы, образовательная стратегия.

В данной статье рассматривается значение инновационных подходов в управлении качеством образования в высших учебных заведениях, а также их эффективность и практическое применение. В ходе исследования проанализированы современные управленческие технологии, информационно-коммуникационные средства, креативные педагогические методы, а также возможности интеграции международного опыта в национальную систему образования. Автор теоретически и практически обосновывает стратегии, направленные на повышение показателей качества образования. Кроме того, в статье выявлены существующие проблемы, возникающие в процессе трансформации системы управления образованием, и предложены рекомендации по их устранению.

KIRISH

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sifati har bir mamlakat taraqqiyotining ustuvor mezoniga aylanib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarning joriy qilinishi va boshqaruv tizimlarining yangilanishi oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan har bir yondashuv faqat o'quv rejalari va dasturlarni yangilash bilangina emas, balki boshqaruv mexanizmlarini transformatsiya qilish orqali ham amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday ta'kidlaydi: *“Bugun biz ta'lim sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqchimiz. Ta'limda sifat bo'lmasa, biz raqobatbardosh iqtisodiyot va kuchli jamiyat barpo eta olmaymiz[1].* Ushbu fikr zamirida nafaqat ta'lim sifati, balki uning boshqaruvga oid mexanizmlarini tubdan isloh qilish zarurati ham mujassam.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy va akademik mustaqilligini ta'minlash, ularni xalqaro reytinglarga jalb qilish, o'quv jarayonini modul va kredit tizimi asosida tashkil etish – bularning barchasi ta'lim sifatini boshqarishdagi innovatsion yondashuvlarning amaliy ifodasidir. Biroq, ushbu yangilanishlar amaliyotda qanday samara bermoqda? Ularning boshqaruv darajasidagi natijadorligini qanday baholash mumkin? Aynan mana shu savollar maqola mazmunining markazida turadi. Ushbu ilmiy

maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning mohiyati, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar hamda yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim sifatini boshqarish masalasi hozirgi davrda zamonaviy menejment, pedagogika va raqamli texnologiyalar sohalarining o'zaro kesishgan muammolaridan biri bo'lib, bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar e'tiborida turibdi. Jumladan, M. Fullan ta'kidlaganidek, ta'limdagi real o'zgarishlar faqat mazmuniy islohotlar bilan emas, balki tizimni boshqarishdagi yangicha yondashuvlar orqali amalga oshadi. U o'z asarida ta'lim transformatsiyasi uchun boshqaruv resurslari, yetakchilik sifati va o'zgarishga tayyorlik darajasi hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi[2]. OECD tomonidan nashr etilgan "Education at a Glance" hisobotida esa ta'lim sifatini aniqlovchi indikatorlar orasida boshqaruvdagi mustaqillik, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi va o'qituvchilarning kasbiy rivoji ustuvor o'rin tutadi[3]. Ushbu xalqaro tahlillar O'zbekiston ta'lim tizimida ham innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish muhimligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlar orasida E. G'oziyevning "Umumiy psixologiya" asarida ta'lim muhitidagi psixologik omillar va motivatsiyaning o'quvchilarning faolligiga ta'siri keng yoritilgan[4]. Ushbu yondashuv asosida, ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat tashkiliy yoki metodik, balki psixologik-ijtimoiy omillar bilan ham bevosita bog'liq ekani aniqlanadi. Mazkur adabiy tahlillar umumiy holda shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuvlar faqat texnologik yangiliklar bilan emas, balki boshqaruv tizimining ichki islohoti, motivatsion va inson resurslariga tayanishi bilan ham aniqlanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishdagi innovatsion yondashuvlarning samaradorligini baholash, ularning real natijadorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

1. *Tizimli tahlil metodi.* Ushbu metod yordamida oliy ta'lim tizimidagi boshqaruv mexanizmlari, ularning funksional tuzilishi va tarkibiy qismlari chuqur tahlil qilindi. Jumladan, boshqaruv strukturasi, resurs taqsimoti, qaror qabul qilish jarayonlari va ularning ta'lim sifati bilan o'zaro aloqasi ko'rib chiqildi. Tizim elementlarining o'zaro ta'siri asosida innovatsion yondashuvlar samaradorligini aniqlashga harakat qilindi.
2. *Komparativ (taqqoslov) usuli.* Mazkur yondashuv orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimida joriy etilgan innovatsion boshqaruv elementlari xalqaro tajriba bilan (xususan, OECDga a'zo mamlakatlar – Janubiy Koreya, Germaniya, Singapur) solishtirildi. Bu orqali, qaysi model va yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekani aniqlanib, milliy sharoitga mos jihatlar ajratib olindi.
3. *Deskriptiv (tavsifiy) metod.* Innovatsion boshqaruv tizimlarining shakllanish jarayoni, ularning ichki komponentlari (raqamli boshqaruv, sifat monitoringi,

modul tizimi va boshqalar) tasvirlandi. Bu metod innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy ko'rinishlarini tavsiflash imkonini berdi.

4. *Ekspert so'rovlari va intervyular.* Tadqiqot doirasida bir qator oliy ta'lim muassasalarining rahbarlari, professor-o'qituvchilari hamda ta'lim menejmenti mutaxassislari bilan savolnomalar va intervyular o'tkazildi. Bu orqali innovatsion boshqaruvning qanday natija berayotgani, mavjud to'siqlar va rivojlanish imkoniyatlari haqidagi subyektiv va amaliy fikrlar to'plandi. Natijalar kontent tahlil metodi orqali umumlashtirildi.
5. *Empirik kuzatuv va hujjatli monitoring.* Ba'zi oliy ta'lim muassasalarida (tanlangan namunalar asosida) ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion tashabbuslarning joriy etilishi bevosita kuzatildi. Dars jarayonlari, boshqaruv hujjatlari, sifat baholash protokollari, ichki audit materiallari asosida amaliy monitoring amalga oshirildi. Bu metod tadqiqot natijalarining haqiqatga yaqinligini ta'minlashga xizmat qildi.

Ushbu metodlar orqali yig'ilgan ilmiy va empirik ma'lumotlar asosida oliy ta'lim tizimida boshqaruv innovatsiyalarining ta'siri ko'p jihatdan baholandi. Bu esa tavsiyalar ishlab chiqish va model taklif etish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olingan dalillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuvlar samaradorligini ta'minlashda faqat texnologik yechimlar yetarli emas. Asosiy omil sifatida tizimda boshqaruv madaniyatining o'zgarishi, tashkiliy tuzilmalarning moslashtirilishi va ta'lim muassasalarining ichki erkinlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida keyingi yillarda joriy etilayotgan islohotlar, jumladan, kredit-modul tizimi, elektron baholash platformalari, raqamli monitoring va strategik rejalashtirish mexanizmlari ta'lim jarayonining ochiqqligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq, mazkur innovatsion tashabbuslar doimiy rivojlanish va tizimli yondashuv bilan qo'llab-quvvatlanmasa, ular faqat formal islohotlar darajasida qolib ketish xavfi mavjud.

OECD (2020) hisobotida ham raqamli texnologiyalar va boshqaruvdagi moslashuvchanlik o'rtasidagi bog'liqlik asoslab berilgan. Bu esa O'zbekistonda ham innovatsion yondashuvlarning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'sirini aniq o'lchash imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, Fullan tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, "innovatsiya – bu faqat yangilik joriy qilish emas, balki mavjud tizimda mohiyatan o'zgarish kiritishdir" degan tamoyil ayni paytda oliy ta'lim menejmenti uchun nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, innovatsion yondashuvlar samaradorligi, eng avvalo, OTM rahbariyatining strategik qarashlari, o'qituvchilarning texnologik savodxonligi va talabalar ishtirokchiligini rag'batlantirish kabi omillarga bog'liq. Boshqaruvda ijodiy fikr yuritish, maqsadli metrikalar asosida sifat monitoringini yo'lga qo'yish, pedagogik va boshqaruv jarayonlarining integratsiyalashuvi — bularning barchasi innovatsion yondashuvlarning muvaffaqiyat omillaridir.

Muhokamalar asosida shuni ta'kidlash lozimki, innovatsion boshqaruv mexanizmlari izchil va tizimli tatbiq etilsa, u holda ular ta'lim sifati indikatorlariga real ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aks holda, ular deklarativ ko'rinishda qolib ketadi. Shu sababli, faqat joriy etish emas, balki ularning ishlash mexanizmlarini doimiy tahlil qilish, monitoring qilish va qayta optimallashtirish zarur bo'ladi. Tadqiqot davomida olib

borilgan nazariy tahlillar, empirik kuzatuvlar va ekspert suhbatlari asosida quyidagi ilmiy asoslangan natijalarga erishildi. *Birinchidan*, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan boshqaruv yondashuvlarining muvaffaqiyati ularning tizimli ravishda raqamlashtirilgani va bu jarayonning tashkiliy strukturalar bilan uzviy bog'langanligi bilan belgilanadi. Ya'ni, faqat texnologiyalarni emas, balki ularni boshqaruv qarorlari qabul qilishga integratsiya qilish asosiy samaradorlik shartidir. *Ikkinchidan*, akademik erkinlikka ega oliy ta'lim muassasalari, ya'ni mustaqil o'quv rejasi, o'z moliyaviy manbaiga ega bo'lgan va xalqaro standartlarga integratsiyalashayotgan OTMlar innovatsion yondashuvlarni jadal va natijali amalga oshirmoqda. Bu esa ularning reyting ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topgan.

Uchinchidan, ijodiy pedagogik metodikalarni qo'llayotgan ta'lim muassasalarida talabalar faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishiga va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qilmoqda. *To'rtinchidan*, ekspert so'rovlaridan ma'lum bo'ldiki, innovatsion boshqaruv tizimlarining joriy etilishi nafaqat o'quv jarayonining natijadorligiga, balki xodimlar motivatsiyasiga, ish unumiga va tashkiliy madaniyat darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ochiq va shaffof baholash tizimi xodimlar orasida adolatli raqobat muhiti shakllanishiga turtki bo'lmoqda. Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar to'g'ri rejalashtirilgan, mantiqan izchil va madaniy kontekstga moslashgan holda joriy etilgan taqdirdagina ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat OTMlar darajasida, balki milliy ta'lim siyosati darajasida ham rejalashtirilgan, kompleks yondashuvni talab etadi.

XULOSA

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish zamonaviy boshqaruvning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagogik jarayonni ijodiy va interfaol metodlar bilan boyitish hamda boshqaruvning moslashuvchan modeliga o'tish ta'lim sifatini oshirishda muhim omillar sanaladi. Biroq ushbu yondashuvlarning samaradorligini ta'minlash ularni tizimli asosda rejalashtirish, inson resurslarini rivojlantirish va ta'lim muhitining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilgandagina mumkin bo'ladi. Shunday qilib, innovatsion boshqaruv yondashuvlari oliy ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini izchil takomillashtirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimidagi nutq*. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev, Sh.M. *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz*. 1-jild. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017. – 85 b.
3. Беспалько В.П. *Слагаемые педагогической технологии*. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.
4. G'oziyev, E. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 45–46-betlar.

5. Кларин М.В. *Педагогическая технология в учебном процессе*. – Москва: Знание, 1989. – 80 с.
6. Fullan, M. *The New Meaning of Educational Change* (5th ed.). – New York: Teachers College Press, 2015.
7. OECD. *Education at a Glance 2020: OECD Indicators*. – Paris: OECD Publishing, 2020.
<https://www.oecd.org/education/education-at-a-glance/>